

**USMON
NOSIR
SHE'RIYATIDA
DARD
TALQINI**



MO'MINOVA SAODAT ARALOVNA,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent.
Qarshi davlat universiteti, O'zbekistan
saodatmo'minova@gmail.com

<https://doi.org/10.47689/STARS.university-pp140-142>

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek adabiyotining iste'dodli vakili Usmon Nosir tarjimayi holi, ijodiy faoliyatining o'ziga xos jihatlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: shoir, davr, jamiyat, tuzum, tarix, she'riyat, iste'dod, ma'naviyat, hissiyot, talqin, tahlil.

Jamiyat hayotida noyob qobiliyatli insonlar kam uchraydi. Iste'dodli shoir Usmon Nosir ana shunday insonlar sirasiga kiradi. Usmon Nosir fitratida boshqalarda uchramaydigan, g'ayrioddiy holatlar mavjud. Shu jihatlari bilan uuzoq vaqt mobaynida xalq xotirasida yashab kelmoqda.

Tarix sahifalaridan ma'lumki, stalincha qirg'in yillarida minglab begunoh kishilar o'lim lagerlarida inson zoti chidashi mumkin bo'lmagan azob-uqubatlarga duchor qilingan. Atoqli olim Naim Karimovning fikricha, "Lekin ularning orasida, nazarimda, Usmon Nosirchalik do'zax qiynoqlarini boshidan kechirgan jabrdiyda kishi kam topilsa kerak". [1. 4] Darhaqiqat, atigi 32 yil umr ko'rgan shoir juda ko'p vahshiyliklarni boshidan kechirgan. Shunga qaramasdan, undan salmoqli ijodiy meros qoldi.

Uning dastlabki she'riy mashqi "Haqiqat qalami" deb nomlanib, mazkur she'r 1927-yilda yozilgan. 1931-yilda esa "Norbo'ta" nomli doston yozgan. Shoirning ilk she'riy to'plamlari "Quyosh bilan suhbat" va "Safarbar satrlar" deyanomlangan, shundan so'ng "Naxshon", "Nil va Rim" dostonlarini, "Traktorobod", "Yurak", "Mehrim" nomli kitoblarini nashr ettirdi. 1937-yil 27-yanvarda Usmon Nosir adabiy faoliyatining o'n yilligi nishonlandi. Ana shu yubileydan keyin 1937-yil 14-iyul kuni Usmon Nosir qamoqqa olindi. Har doimgiday hasad, xusumat, ko'rolmaslik, chaqimchilik o'z ishini qildi.

Usmon Nosir SSSR oliy sudi Harbiy Kollegiyasi tomonidan "xalq dushmani" sifatida ayblanib, 10 yil muddatga qamaladi. Endigina 25 yosh bo'sag'asida turgan yosh iste'dodli ijodkor Zlatousk, Vladivostok, Magadan qamoqxonalari bo'ladi. Magadan shahridagi eng dahshatli qamoqxona lageriga jo'natiladi. Ayni yigitlik umrini dahshatli azob-uqubatlarda, qamoq lagerlarida o'tkazishga majbur bo'ldi. Ayni 25 yoshida qamalib, qatag'on qilingan shoir 1944-yili 32 yoshida vafot etdi.

Usmon Nosir qanday inson yoki qanday shoir edi? “Usmon Nosir deganda biz kimni tushunamiz? U shunday iste’dod egasiki, bamisoli tekkan joyini kuydiruvchi olovdir. Shoirning g’oyat qisqa umriga nazar solgan kishi judauzoq o’ylarga tolishi shubhasizdir. Chunki bu chaqmoq umrda benihoya katta imkoniyatlar yonib ketganligini ko’rib va his qilib turasiz”, – degan edi O’zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov. [2] Shoir murakkab ijtimoiy davrda yashadi. U davrga, tuzumga tanqidiy qaradi. Quyidagi she’rida biz shoirning ijtimoiy nuqtayi nazarini anglagandek bo’lamiz:

Kech tug’ildim, ammo qola olmadim,
Ikki bo’lak yo’lning
Arosatida.
Har bir so’zim sinfiy,
Falsafiy fard,
Sinfiy ong yotadi farosatimda.

Har bir ijodkor haqida haqiqatni uning ijodi orqali asoslash mumkin. Shoir she’rlarini kuzatar ekanmiz, uning qalb amri bilan ijod qiluvchi, o’zi yoqqan gulxanda o’zi toblanuvchi, cheksiz mashaqqatli mehnatdan rohat-farog’at oluvchi, ijodni qismat deb biluvchi shaxs ekanligini anglab olamiz. Usmon Nosirning latif va samimiy, o’ychan, ammo hamisha maroqli she’riyatini ko’zdan kechirgan o’quvchi teran o’ylarga cho’madi.

Shoirning “Monolog” she’rini ko’zdan kechiraylik:
Sevgi! Sening shirin tilingdan
Kim o’pmagan, kim tishlamagan?
Darding yoyday tilib ko’ksidan,
Kim qalbida qonlar to’kmagan?

Yosh, navqiron yigitning sevgiga, hayotga tashna qalbi qa’ridan sizib chiqayotgan satrlar kishini o’ziga tortadi, qalbini ezgu, latif hislarga oshno etadi. Sevgidek qadimiy va hamisha navqiron tuyg’uning sirli va jozibadorligi, sehr-u sinoatga boyligi, dard-u alamlarga giriftorligi kunday ravshan. She’rni o’qir ekansiz, shoirning tafakkuri, bilim darajasi nihoyatda kengligiga qoyil qolasiz. Petrarka, Rimning Sapposi, Tasso, makkor qiz Eleonora, tosh ko’ngilli Beatrice, Dante, Hamlet, Ofeliya, Shekspir, Otello, Dezdemonna kabi nomlarni uchratasiz. Atigi 22 yoshlik shoirning jahon adabiyoti namoyandalari va ularning durdona asarlarini yaxshi bilishidan hayratlanasiz. Usmon Nosir o’qimishli, teran fikr yuritadigan, favqulodda iste’dod egasi ekanligiga tan berasiz. Shoir sevgi deb atalgan hissiyot tarixiga nazar tashlaydi va shunday xulosaga keladi:

Jim!... Ufqdan botar quyoshni,
Shart kesilgan boshga o’xshatdim.
Parcha-parcha kuygan shafaqlar,
Tirqiragan qonni eslatdi!

Sevgining qonli tarixi shoirga ufqdagi botayotgan shafaqni, “kesilgan bosh”ni, “tirqiragan qon”ni eslatadi. Sababi, hech bir sevgi tarixi baxtli xotima topmagan. Xiyonat, qabohat, rashk, alam, vafosizlikdan zada ko’ngillar mo’lligi shoir qalbini larzaga soladi.

Qanday qo’rqinch! Qanday qabohat!
Mumkin emas hech qiynalmasdan!
Aqldan ozganmi muhabbat?
Mumkin emas qarshi turmasdan!

“Asrlarni yig’latgan sevgi”ning yonini olib, uning dushmanlariga qarshi bosh ko’taradi. Insonlarning hissiyotlariga ham jilov solgan davrlarga nafratini oshkor bildiradi. Bunday holga yuragi chidamasligini, befarq qarab bo’lmasligini, yuragi yonayotganligini namoyon etadi. Kelajak, sevgidan, baxtdan umidvorlik hissi hayotga muhabbat uyg’otadi.

O’sha paytda qaysisi kulgi,
Qaysi biri berar hayajon.
Bu she’rimning boisi shulki:
Fikr-bola, bola-o’suvchan!

Shoirning uyg’oq fikri, teran tafakkuri, noyob iste’dodi, mushohadaga boy o’y-xayollari go’zal kelajak sari yetaklaydi. Yosh qalbi kelajakda unib-o’sishini, rivojlanishini, aqli,shuuri yanada to’lishini istaydi. Ammo shunday hassos yurak sindirildi, sindirilganda ham qaytib tiklanmas darajada mayib qilindi, yanchildi. O’zbek xalqiga berilgan yoniq yurakli, hassos qalbli, mard, jasur, tikso’z, kurashuvchan, to’g’riso’z, irodasi bukilmas og’lonni nafosat dushmanlari ado qildilar. Yuqorida aytganimizdek, shoir haqidagi asl haqiqatni asarlari orqali asoslash mumkin. U o’z she’rlarida hech qachon o’lmasligini bashorat qildi, she’riyatning tabarruk, muqaddas dargohida anvoyi bir chamanzor, sira xazon bo’lmaydigan bog’ yaratib ketdi, xalqimiz qalbida armon bo’lib qoldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Naim Karimov. Usmon Nosirning so’nggi kunlari. “Sharq” nashriyot matbaa konsernining bosh tahririyati. Toshkent, 1994.
2. Abdulla Oripov. Usmon Nosir haqida so’z. O’zbekiston adabiyoti va san’ati, 1983-yili, 18-mart.